



UDK: 801.82:81.178

Faxriddin YAKUBOV,

Kattaqo'rg'on davlat pedagogika instituti o'qituvchisi

E-mail: yakubovf57@gmail.com

PhD O'.Xudoynazarova taqrizi asosida

SIYOSIY DISKURSDA METAFORALAR QO'LLANILISHINING BOSQICHLARI, YO'NALISHLARI

Annotatsiya

Maqolada zamonaviy tilshunoslikdagi muhim yo'nalishlardan biri – diskurs va siyosiy metaforaning kognitiv-pragmatik jihatlarini tahlil qilingan. Muallif J.Lakoff va M.Johnsonning konseptual metafora nazariyasiga tayangan holda, metaforaning inson tafakkuri va ijtimoiy ongda o'rini yoritadi. E.Lassan tomonidan ilgari surilgan oppozitiv diskurs modeli asosida matnning tuzilishi, uning kognitiv va ritorik mexanizmlari o'rganiladi. Shuningdek, A.N.Baranov, N.D.Arutyunova, Yu.N.Karaulov kabi rus olimlarining siyosiy diskursdagi metaforalarga oid tadqiqotlari tahlil qilinadi. Maqolada metaforalar siyosiy fikrni shakllantirish, manipulyativ ta'sir ko'rsatish va mafkuraviy ongni modellashtirish vositasi sifatida talqin etiladi.

Kalit so'zlar: Diskurs, siyosiy diskurs, konseptual metafora, oriyentatsion metafora, oppozitsion, kognitiv metafora, freym.

ЭТАПЫ И НАПРАВЛЕНИЯ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ МЕТАФОР В ПОЛИТИЧЕСКОМ ДИСКУРСЕ

Аннотация

В данной статье анализируется одно из ключевых направлений современной лингвистики – когнитивные и прагматические аспекты дискурса и политической метафоры. Опираясь на теорию концептуальной метафоры, разработанную Дж.Лакоффом и М.Джонсоном, автор исследует роль метафоры в человеческом познании и общественном сознании. На основе оппозиционной модели дискурса Э.Лассан рассматривается структура текстов, а также их когнитивные и риторические механизмы. Анализируются работы российских учёных, таких как А.Н. Баранов, Н.Д.Арутюнова и Ю.Н.Караулов, посвящённые политическому дискурсу и метафоре. Метафоры интерпретируются как инструменты формирования политического мышления, оказания манипулятивного воздействия и моделирования идеологического сознания.

Ключевые слова: дискурс, политический дискурс, концептуальные метафоры, ориентационные метафоры, оппозиция, когнитивные метафоры, фрейм.

STAGES AND DIRECTIONS OF METAPHOR USAGE IN POLITICAL DISCOURSE

Annotation

This article analyzes one of the key areas of modern linguistics – the cognitive and pragmatic aspects of discourse and political metaphor. Drawing on the conceptual metaphor theory developed by G.Lakoff and M.Johnson, the author explores the role of metaphor in human cognition and social consciousness. Based on E. Lassan's oppositional discourse model, the study examines the structure of texts along with their cognitive and rhetorical mechanisms. The works of Russian scholars such as A.N.Baranov, N.D.Arutyunova, and Yu.N.Karaulov on political discourse and metaphor are also reviewed. The article interprets metaphors as tools for shaping political thought, exerting manipulative influence, and modeling ideological consciousness.

Key words: Discourse, political discourse, conceptual metaphors, orientational metaphors, opposition, cognitive metaphors, frame.

Kirish. Zamonaviy tilshunoslikda yangi yo'nalishlar sifatida tan olingan pragmatik va kognitiv tilshunoslikning asosiy muammolaridan biri diskurs masalasidir. Diskurs og'zaki va yozma matndir. Diskurs ikki ma'noni anglatadi: diskurs bu ma'lum sharoitlarda aktuallashadigan matn va diskurs amaliyoti sifatidagi diskurs. Diskursda ham umumiy, milliy, ham individual, xususiy sifatida madaniyat, mentalitet aks etadi. Siyosiy diskurs “siyosiy munozaralarda ishlatiladigan barcha nutqiy aktlar jamlanmasidir” [12].

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. J.Lakoff va M.Jonson metafora bizning kundalik hayotimizdadir, u faqat tilimizda emas, harakatlarimizda ham aks etadi, – deb ta'kidlagan edilar [8]. J.Lakoffning “Metaphors we live by” (“Biz bilan birga yashaydigan metaforalar”) kitobi tilshunoslarning e'tiborini insonning dunyoni metaforik anglash tizimiga qaratdi. Ijtimoiy reallikning katta qismi ma'lum bir sotsium a'zolari tomonidan qabul qilingan tayanch metaforalar orqali tushuniladi. Metaforik tushuncha inson

faoliyatini qanday tashkil etishi haqida tasavvur uyg'otish uchun J.Lakoff va M.Jonson “bahs bu urush” metaforasini ko'rib chiqadilar. Bu konseptual metafora kundalik hayotdagi ko'p sonli ifoda, iboralarga tayangan holda aytilgan. Bizlar bahs-tortishuvlar haqida urush terminlari bilan gapiribgina qolmay, bahsda g'olib yoki mag'lub bo'lishimiz, opponentga raqib sifatida qarashimiz, uning pozitsiyalariga hujum qilishimiz va o'zimiznikini himoya qilishimiz mumkin. “Bahslarda bizning real qiladigan ishimizning ko'p qismi ko'p hollarda urushga oid terminlarda tushuniladi” [8].

“Bahs bu raqsdir” bazaviy metaforasiga ega tasavvuriy madaniyat egalari bahsni sheriklarning uyg'un va chiroyli harakatlari sifatida qabul qila oladilar. Metaforalar bir tushunchani boshqa tushuncha terminlarida tushuntira oladi, lekin, reallikni metaforik jihatdan tartibga solish bu hollarda keng ko'lamli emas, balki qisman xarakterga ega [8]. Metafora bir tushunchani fikrlashga yordam berib, boshqa

ba'zi aspektlarini xiralashtiradi: raqibni dushman sifatida qabul qilib, bahsda hamkorlikni unutish mumkin.

Orientatsiya (mo'ljalga olish) metaforasida boshqa tizimlar terminlarida tushunchalarning butun bir tushunchalar tizimi tashkil etiladi [8], masalan, kuchga, hokimiyatga ega bo'lish – yuqoriga mo'ljal beradi, kuchga bo'ysunish esa pastga orientatsiya beradi. Fizik obektlar bilan bog'liq, ya'ni voqealar, harakatlar, hissiyotlar, g'oyalar va hokazolarni tushuntirish usullari bilan bog'liq tajribalar ontologik metaforalar asosini tashkil etadi [8]. Inflyatsiyaga mustaqil tabiatli so'z deb qarash, u haqda o'ylab fikrlash, uni miqdoriy tasniflash, uning u yoki bu aspektini ajratish, harakatlarimizda uni e'tiborga olish yoki o'z xatti-harakatlarimizda uning tabiatini tushunayapmiz deb tasavvur qilishga izn beradi.

60-yillardagi metaforalarning amal qilishi va ularning siyosiy diskurslar paydo bo'lishidagi rolini tahlil qilgan E.Lassandan farqli ravishda A.N.Baranov va Yu.N.Karaulov [4] zamonaviy rus jamiyati bilan birga “yashayotgan” kognitiv metaforalarni o'rganishadi.

Tadqiqot metodologiyasi. Siyosiy diskursda metaforalar qo'llanilishining bosqichlari, ularning asosiy yo'nalishlariga bag'ishlangan mazkur maqolada ilmiy tadqiqotning analogik tahlil, analiz, sintez kabi usullaridan samarali foydalanildi.

Tahlil va natijalar. Metaforalar mavhum tushunchalar haqida tasavvurlar yaratadi, tafakkurimizga tabiiy va chuqur kirib boradi, “ichki dunyo olamining aniq, to'g'ridan-to'g'ri tasviri” [8] deb tushuniladi, lekin bunda metaforalar fikrlash, borliqni bilish usulini aniqlaydi. Shu sababdan metaforalar matn rivojlanishida ishtirok etadilar. Konseptual metaforalar yordamida mafkuralashgan matnning tug'ilishi (paydo bo'lishi) E.Lassan tomonidan tasvirlangan. E.Lassan matnning eng soddadan eng murakkab tuzilishigacha bo'lgan strukturasi ko'rib chiqadi.

Birinchi daraja (bosqich) asosi sifatida ongning binar (ikki) qarama-qarshiligi ko'rinadi. Matnda oppozitsiya (qarama-qarshilik) ajralish tartibi ijtimoiy kontent tahliliga asoslanadi. Muhimlik darajasi uning diskursda qo'llanilishi miqdori bilan qiyoslanadi. Matnda oppozitsiyalarning borligi “qarama-qarshi tushunchalar nominatsiyasining yetarli darajada tez-tez uchrashi” bilan belgilanadi [2]. Muallifning kitobida 60-yillarda rus siyosiy diskursini xarakterlovchi quyidagi oppozitsiyalar ko'rsatilgan: kommunizm-antikommunizm, patriotizm-antipatriotizm, kollektivizm-individualizm, zakonnost-bezzakoniye, gumanizm-antigumanizm.

Matn vujudga kelishining ikkinchi bosqichi tushunchaga oid oppozitsiyalarning konseptual metaforalar bilan berilishidir. Ikkitalik (binar) oppozitsiyalar mavhum tushunchalardan tashkil topgan. Bu mavhum tushunchalar “bir butunlikka ega bo'lishi kerak, tushunarliroq va barchaga ma'lum tilga tarjima qilina olishi kerak, ana shunda metafora vujudga keladi” [3].

Bazaviy metaforalar harakatlarimizni belgilaydi: vaqt bu boylik, uni asrashimiz, oqilona foydalanib, behuda sarf qilmasligimiz kerak, ssenariy (sxemalar) kabi kognitiv birliklar metaforik shaklga ega bo'ladi.

Konseptual metafora harakat ishtirokchilarini bashorat qilishi, uni jumlaning chuqur semantik tuzilishidagi predikatga o'xshatadi, bu ham nominal guruhlarining rollarini “belgilaydi”. Harakat ishtirokchilari tegishli nomlarni oladilar.

“Dunyo-kommunizm va antikommunizm o'rtasidagi kurash fronti” bazali metaforasi bor matnda gapiruvchi ushbu metafora ta'sirida “dushmanlar”, “xoinlar”, “urush olovini yoquvchilar” kabi til vositalarini tanlaydi.

Uchinchi bosqichda “matn yaratilishining ritorik mexanizmlari ishga tushadi”. Lassan nominatsiyalarning paydo bo'lishi jarayonini ongning ilk tuzilmalaridan haqiqiy matn tuzilmalariga o'tish jarayoni deb biladi. Metafora bilan

bog'liq nominatsiyalar ularga mos keladigan freymlarni vujudga keltiradi. Masalan, “dushman” freymi. Keyin u bilan bog'liq bilimlar verballashadi [5]. Siyosiy matndagi shaxs faoliyati “kauzal freym” bilan tasvirlanishi mumkin. Bunday freym (freym birliklarini tashkil etadigan) 5 ta slotni o'z ichiga oladi:

Subyekt, subyekt xarakteristikasi: dushman, abrax;

Subyekt qadriyatlar, maqsadlari: orqadan zarba bermoq;

Holatlar, xarakteristika: mafkuraviy janglarda;

Harakatlar, xarakteristika: pushkani o'omatdi va o'ziniklar tomon o't ochdi;

Harakat natijasi, xarakteristika: xalqning qonuniy g'azabini qo'zg'amoq.

Har bir slotdagi asosiy element xarakteristikasi orqali subyektning “dushman” sifatidagi faoliyati tushuntiriladi, izohlanadi. Denotativ ma'noli til vositalari tanlanmaydi, balki “subyekt va unga bog'liq barcha narsalar ushbu holatda “dushman” so'zidagi bahoga muvofiq talqin qilinadigan leksik birliklar tanlanadi.

E.Lassan matnning mazmunini g'oyalarning ikki qarama-qarshiligi (binary opposition) bilan taqqoslaydi, chunki gapiruvchi ba'zi bir hodisani uning ongida mavjud bo'lgan semantik nuqtai nazaridan va fikrni esa barchasini o'zida jamlagan va keyin matnda sintagmatik ko'rinadigan ssenariy-metafora bilan baholaydi.

E.Lassan tomonidan tasvirlangan ikki qarama-qarshiliklar (binary opposition) V.F.Petrenko va O.V.Mitina [12] tomonidan ta'kidlangan omillarni to'ldiradi. Ushbu psixologlar 1994-1995-yillarda Rossiyaning turli shaharlarida tadqiqotlar o'tkazdilar.

Subyektiv semantik kengliklar qurilishi psixosemantika usuli va ayni bir vaqtda subyektning dunyo manzarasi reprezentatsiyasi shakli sifatida xizmat qiladi. Sinalayotgan usul taklif qilingan materialga assotsiatsiyalar beradi, shkalalashtiradi va baholaydi. Yaratilayotgan ma'lumotlar matritsasi sinalayotgan individual tajribani aks ettiradi. Ma'lumotlar matritsasiga qo'llanilgan faktor tahlili o'zaro bog'langan belgilarni ajratishga imkon beradi. Belgilarni umumlashgan faktorlar kategoriyalariga qo'shadi. Semantik kengliklarni geometrik deb tasavvur qilsak, faktorlar ularning koordinat o'qlaridir. Faktorlar mazmuni subyektning dunyoni fikrlash usullarini aks ettiradi [8]. Respondentlar fikriga ko'ra, Rossiya jamiyatidagi eng muhim faktorlar quyidagilar: jamiyatni demokratlashtirish – totalitarizm, ma'naviyat – ma'naviyatsizlik va iqtisodiy maqsadga muvofiqlik – maqsadga muvofiq emaslik [8].

Metaforalar borliqni bilish usuliga ta'sir qilib, “agitatsiya quroli” ga aylanadi (9: 92), bo'yoqlarni qo'llash bilan o'z mualliflarining haqiqiy yoki konyuktur qarashlariga to'g'ri keladigan jamoat-siyosiy landshaftni yaratadilar. Rus matbuotining 1986-1994-yillardagi nashrlariga tayanib, I.Kojenevska-Berchinskaya metaforalarni guruhlaydigan so'z-simvollar ro'yxatini keltiradi: lomka, konfrontatsiya, siloviy metod, utopiya, krizis, bolezni, demokratiya, biznes, rinok, reforma, borba-pobeda [9].

A.N.Baranov tomonidan ikkinchi yo'nalish deb nomlangan tadqiqotlarning yo'nalishi bu metaforalarning diskurs taqdiridir. “Siyosiy diskursda metaforalar diskursning eng ko'p havola qilinadigan tarkibiy qismi, u nafaqat muhokama mavzusini, balki oldindan bahosini ham beradi” [5].

Shuni e'tiborda tutish kerakki, nutqiy shtampning ideologik muammosi ijtimoiy ongning miflashtirilishi bilan bog'liq. Nutqiy stereotiplarda jamlangan ideologik miflar ijtimoiy ongni manipulyatsiya qilishda vosita bo'lib xizmat qilgan va xizmat qiladi [11].

Tadqiqotlarning uchinchi yo'nalishini A.N.Baranov “siyosiy metafora va siyosiy diskurs” deb atadi [5]. Parlament

debatlari haqidagi ishlarning mualliflari zamonaviy rus siyosiy diskursining metaforik ekanligini butunlay tabiiy deb hisoblaydi, chunki metaforaning kognitiv kuchi yechimni izlashda uni instrumentga aylantiradi [6].

Xulosa va takliflar. Siyosiy diskurs zamonaviy rus ijtimoiy ongida ko'p hollarda oppozitsiyalar, ya'ni "biz – ular", "haqiqat – yolg'on", "tinchlik – urush", "tartib – betartiblik" kabi qarama-qarshi tushunchalar asosida shakllanadi. Bunday oppozitsiyalar orqali siyosiy fikrlar, mafkuraviy pozitsiyalar va ijtimoiy baholar ifodalanadi. Yangi qadriyatlarni tushunish, mavjudlarini esa qayta baholash

jarayoni ko'pincha kognitiv metaforalar yordami bilan amalga oshiriladi. Metafora bu yerda oddiy bezak vositasi emas, balki tafakkurni tashkil etuvchi, siyosiy voqelikni anglash va tushuntirish mexanizmi sifatida namoyon bo'ladi. Natijada, siyosiy matnlarda, ommaviy chiqishlarda va axborot vositalarida metaforik ifodalar haddan tashqari ko'p ishlatiladi. Bu holat o'z navbatida siyosiy diskursning ortiqcha metaforlashuviga, ya'ni metafora siyosiy fikrning markaziy ifoda vositasiga aylanishiga olib keladi. Natijada, metafora nafaqat tilda, balki ijtimoiy ongda, siyosiy tafakkurda va ommaviy tasavvurlarda ham chuqur ildiz otadi.

ADABIYOTLAR

1. Акимов В.П., Баранов А.Н., Сергеев В.М. Компьютерная модель текущего сознания в системе Авгур. // Исследования по когнитивным аспектам языка. – Тарту, 1990.
2. Арутюнова Н.Д. Языковая метафора. //Лингвистика и поэтика. – М., 1979. – 173 с.
3. Арутюнова Н.Д. Метафора и дискурс. // Теория метафоры. – М., 1990. – 219 с.
4. Баранов А.Н. Политическая аргументация и ценностные структуры общественного сознания. // Язык и социальное познание. – М., 1990. – 176 с.
5. Баранов А.Н. Очерк когнитивной теории метафоры. Материалы к словарю. – М., 1991. – 193 с.
6. Баранов А.Н., Казакевич Е.Г. Парламентские дебаты: традиции и новации. – М., 1991. – 64 с.
7. Баранов А.Н., Караулов Ю.Н. Политическая метафора как объект лингвистического исследования. – М., 1991. – 216 с.
8. Земская Е.А. Клише новояза и цитация в языке постсоветского общества. // Вопросы языкознания, 1996. – N 3. – С. 23 – 31.
9. Коженовска-Берчинская И. Новации в языковой картине мира российского человека: на основе современных публицистических текстов. – Ольштин, 1996. – 207 с.
10. Лакофф Дж., Джонсон М. Метафоры, которыми мы живём (главы 1 – 6). Теория метафоры. – М., 1990. – 415 с.
11. Лассан Э. Дискурс власти и инакомыслия в СССР: когнитивно-риторический анализ. – Вильнюс, 1995. – 232 с.
12. Миронова Н.Н. Оценочный дискурс: проблемы семантического анализа. // Известия АН. Серия литературы и языка. – 1997.